

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Buxoro viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1 aprel holatiga 1929,1 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 4,9 ming kishiga yoki 0,3 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 711,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,9 %), qishloq aholisi soni 1217,9 ming kishini (63,1 %) tashkil etdi.

### E'tibor bering: 2020-yil yanvar-mart

- Aholi soni **29,4 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **8,0 ming nafami** tashkil etdi.
- **1,9 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3,3 mingta nikoh** va **0,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Buxoro viloyati aholisining umumiy o'sishi (2020-yil yanvar-mart oylarida)



## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2019-2020 yillar 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	2019-yil	2020-yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1900,0</b>	<b>1929,1</b>	<b>101,5</b>
Buxoro sh.	278,5	280,8	100,8
Kogon sh.	60,7	61,2	100,8
tumanlar:			
Olot	97,7	99,2	101,5
Buxoro	163,6	166,7	101,9
Vobkent	137,4	139,9	101,8
G'ijduvon	299,7	304,2	101,5
Kogon	76,6	78,3	102,2
Qorako'l	161,7	164,2	101,5
Qorovulbozor	18,1	18,3	101,1
Peshko`	120,6	122,9	101,9
Romitan	139,0	141,6	101,9
Jondor	171,7	174,4	101,6
Shofirkon	174,7	177,4	101,5

\*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 304,2 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,8 %ni) va Buxoro shahrida 280,8 ming kishini(14,6 %), aksincha eng kam aholi soni Kogon shahrida 61,2 ming kishi (3,2 %) va Qorovulbozor tuumanida 18,3 ming kishini (1,0 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Kogon tumanida 2,2%ni, Peshku, Romotan va Buxoro tumanlarida 1,9 %ni, Vobkent tumanida 1,8%ni, Jondor tumanida 1,6%, Qorako'l, G'ijduvon,Olot va Shofirkon tumanlarida 1,5%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Kogon va Buxoro shaharlarida 0,8% ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2020-yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)




## Demografik holat

### Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi (2020-yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

	erkak	ayol
<b>Buxoro viloyati</b>	966,2	962,9
Buxoro sh.	139,6	141,3
Kogon sh.	29,8	31,4
<i>tumanlar:</i>		
Olot	49,7	49,5
Buxoro	83,7	83,1
Vobkent	70,3	69,6
G'ijduvon	155,4	148,8
Kogon	38,7	39,6
Qorako'l	81,1	83,1
Qorovulbozor	9,1	9,2
Peshku	61,5	61,4
Romitan	71,7	69,9
Jondor	86,2	88,1
Shofirkon	89,4	87,9

### Hududlar kesimida aholi zichligi (2020-yil 1 aprel holatiga, 1 kv kmga to`gri keladigan aholi)



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida 8,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 16,8 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaygan (2019-yilning yanvar-mart oylarida 16,9 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Buxoro shahrida (14,6 promilledan 18,3 promillega), G'ijduvon tumanida (17,6 promilledan 18,3 promillega), Romitan tumanida (15,7 promilledan 16,4 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Qorovulbozor tumanida (17,7 promilledan 14,5 promillega), Kogon tumanida (19,7 promilledan 17,1 promillega), Buxoro tumanida (16,1 promilledan 13,6 promillega) Olot tumanida (19,4 promilledan 17,2 promillega) va Shofirkon tumanida (17,6 promilledan 15,8 promillega) kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Qiz bolalar:**  
4,0  
ming nafar

**O'g'il bolalar:**  
4,0  
ming nafar

### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-mart)



## Demografik holat

### Buxoro viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi (yanvar-mart)

	2019 y.	2020 y.	O`sinh sur`ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>7851</b>	<b>8028</b>	<b>102,3</b>
Buxoro sh.	1110	1273	114,7
Kogon sh.	256	247	96,5
<i>tumanlar:</i>			
Olot	460	423	92,0
Buxoro	595	563	94,6
Vobkent	603	602	99,8
G'ijduvon	6761	1381	106,7
Kogon	354	332	93,8
Qorako'l	727	726	99,9
Qorovulbozor	78	66	84,6
Peshku	475	501	105,5
Romitan	526	576	109,5
Jondor	629	641	101,9
Shofirkon	744	697	93,7

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida 1,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 3,9 promilleni tashkil etdi, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega ko'paygan (2019-yilning yanvar-mart oylarida 3,8 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayish Olot tumanida (3,8 promilledan 3,4 promillega), Shofirkon tumanida (4,3 promilledan 3,9 promillega), Qorako'l tumanida (4,1 promilledan 3,8 promillega) va Vobkent tumanida (4,0 promilledan 3,9 promillega) kuzatilgan bo'lib, aksincha Kogon shahrida (4,7 promilledan 5,6 promillega), Qorovulbozor (1,8 promilledan 2,4 promillega) Kogon (4,2 promilledan 4,7 promillega), G'ijduvon (3,8 promilledan 4,2 promillega) va Buxoro shahrida (4,0 promilledan 4,4 promillega) tumanlarida o'sish holati kuzatildi


## Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
1,0 ming  
kishi

**Ayollar:**  
0,9 ming  
kishi

## Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-mart)



## Demografik holat

### Buxoro viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi (yanvar-mart)


	2019 y.	2020 y.	O`sinh sur`ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1792</b>	<b>1890</b>	<b>105,5</b>
Buxoro sh.	274	305	111,3
Kogon sh.	71	85	119,7
<i>tumanlar:</i>			
Olot	91	83	91,2
Buxoro	142	159	112,0
Vobkent	135	134	99,3
G'ijduvon	279	318	114,0
Kogon	79	92	116,5
Qorako'l	165	153	92,7
Qorovulbozor	8	11	137,5
Peshku	94	98	104,3
Romitan	112	127	113,4
Jondor	158	154	97,5
Shofirkon	184	171	92,9

## Demografik holat

2020-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,4 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,9 %i o'simtalardan, 4,4 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,0 %i yuqumli va parazitari kasalliklardan hamda 12,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 77 nafarni tashkil etib, ularning 35,2 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 23,9 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,2 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 %i tug'ma anomaliyalardan, 2,8 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 15,5 %i yuqumli-parazitari kasalliklardan va 17,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2020-yil yanvar-mart

**Tabiiy o'sish.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 6,1 ming kishini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan o'zgarishsiz qoldi. (2019-yilning yanvar-mart oylarida 6,1 ming kishi bo'lgan)



Tabiiy o'sish:  
6,1 ming kishi

## Nikoh.

2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 16,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,9 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qorovulbozor tumani (141,7 %), Kogon shahar (110,9 %) va Olot tumanlari (100,6 %) ga to'g'ri kelmoqda.


## Nikohdan

## ajralishlar.

2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro tumani (152,9%) va Kogon shahriga (123,1 %) to'g'ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-mart)**



## Demografik holat

### Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-mart)



### Buxoro viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-mart)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019 y.	2020 y.	O`shish sur`ati %da	2019 y.	2020 y.	O`shish sur`ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>3632</b>	<b>3326</b>	<b>91,6</b>	<b>499</b>	<b>465</b>	<b>93,2</b>
Buxoro sh.	520	512	98,5	154	127	82,5
Kogon sh.	101	112	110,9	26	32	123,1
<i>tumanlar:</i>						
Olot	162	163	100,6	16	14	87,5
Buxoro	342	268	78,4	34	52	152,9
Vobkent	263	245	93,2	23	16	69,6
G`ijduvon	464	462	99,6	63	61	96,8
Kogon	151	117	77,5	25	25	100
Qorako`l	343	307	89,5	32	30	93,8
Qorovulbozor	24	34	141,7	4	4	100
Peshku	263	204	77,6	16	15	93,8
Romitan	313	281	89,8	37	35	94,6
Jondor	390	357	91,5	36	26	72,2
Shofirkon	296	264	89,2	33	28	84,8

## Migratsiya

2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1,3 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 2,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 1,0 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 0,8 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	1,2	1,3
<b>Ko'chib ketganlar</b>	2,0	2,3
<b>Migratsiya saldosini</b>	-0,8	-1,0

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Buxoro shahrida (minus 137 kishi), G'ijduvon tumanida (minus 216 kishi) qayd etildi.

